

Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2024-yil 7-dekabr, shanba,
140-141 (24.017-24.018)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

KUN HIKMATI

Ko‘zi och odamni faqat qonun tarbiyalaydi

8-DEKABR – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI QABUL QILINGAN KUN

Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qiladi.





SESSIYA SHUNDAY O‘TISHI KERAK

Bu 6-dekabr kuni o‘tkazilgan xalq deputatlari viloyat Kengashining to‘rtinchi sessiyasidan so‘ng deputatlarning xulosasi.

Xo‘sh, nega?

Bu avvalo, yangi chaqiriqda mahalliy davlat hokimiyati va vakillik organining vakolatlari bir-biridan ajratilgani bilan bog‘liq. Ya’ni, endi viloyat hokimi ijro organiga va bir vaqtning o‘zida viloyat Kengashiga rahbarlik qilmaydi. Birinchi sessiyada deputatlar orasidan Kengashga rais saylab olingani haqida xabar bergandik.

Ikkinchidan, sessiya avvalgidek viloyat hokimligi binosida emas, Kengashlar uyida o‘tkazildi. Endilikda xalq deputatlari viloyat Kengashi va uning kotibiyati ushbu binoda faoliyat ko‘rsatadi.

Uchinchi yana bir o‘zgarish – sessiyaga, Kengash raisi ishtirok etmagani sababli xalq deputatlari viloyat Kengashida eng ko‘p deputatlik o‘rniga ega bo‘lgan O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi deputatlik guruhi a’zosi Haydar O‘roqov raislik qildi.

Deputatlar dastlab, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi asosida 2024-yilda Samarqandda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida viloyat hokimining o‘rinbosari A.Shukurovning hisobotini eshitdilar.

Viloyat hokimi o‘rinbosari o‘z yo‘nalishi bo‘yicha, ya’ni “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” davlat dasturining energiya resurslarini iqtisod qilish, transport xizmatlari, yo‘l infratuzilmasi, aholining ichimlik suv ta’minotini yaxshilash, aholini uy-joy bilan ta’minlash, yashillik darajasini oshirish hamda maishiy chiqindi xizmatlari ko‘rsatish bilan bog‘liq masalalarga to‘xtaldi.

– Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida viloyatimizda 84,2 MVt quvvatli quyosh panellari o‘rnatildi, – dedi A.Shukurov. – Buning natijasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jami iste’moldagi ulushi 8,9 foizga yetdi. Yil boshidan buyon 352,3 million yo‘lovchiga transport xizmatlari ko‘rsatilib, yo‘lovchi tashish xizmatlari hajmi 104 foizga yetkazildi. Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta’minlash darajasini oshirish bo‘yicha 11300 xonadonli 182 ta uy-joy qurilishi belgilangan bo‘lib, bugungi kunga qadar 3797 xonadonli 62 ta ko‘p qavatli uy foydalanishga topshirildi. Bulung‘ur va Urgut tumanlarida boshlangan “Yangi O‘zbekiston” massivlari qurilishi Toyloq tumani va Samarqand shahrida ham boshlandi. Yangi uy-joylar qurilishi natijasida yil yakuniga qadar urbanizatsiya darajasi 37,5 foizga yetishi kutilmoqda. Davlat dasturida belgilangan infratuzilma loyihalarini barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlash bo‘yicha aholining ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash uchun 492,1 kilometr suv tarmoqlari va 93 ta suv inshooti qurildi. Buning natijasida aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasi 77,6 foizga yetdi. Shahar va qishloqlardagi mahallalarning 3 ming kilometr uzunlikdagi ichki avtomobil yo‘llarini asfaltlash va shag‘allashtirish ishlari amalga oshirildi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida bahor mavsumida 11,6 million tup, kuzgi mavsumda esa shu kunga qadar 6,3 million tup manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlari ekildi.

Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilash yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar tufayli viloyatdagi 1126 ta mahallaning 1123 tasi qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari bilan qamrab olingan. Chiqindini qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi 19 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan joriy yilda 24 ming 272 tonna polimer mahsulotlari, qog‘oz-karton chiqindilarini qayta ishlanib, chiqindilarni qayta ishlash darajasi 38 foizga yetkazildi. Ishtixon hamda Jomboy tumanlaridagi ikkita maishiy chiqindi poligoni yopilib, maishiy chiqindi poligonlarini qisqartirish darajasi 7,5 foizni tashkil etdi.

Hisobot yuzasidan deputatlar viloyat hokimi o‘rinbosariga hududlarda mavjud muammolar, yechmini kutayotgan masalalar yuzasidan savollar berdi.

Jumladan, davlat dasturida belgilangan olis maktablar o‘quvchilari uchun avtobus qatnovini yo‘lga qo‘yish, tumanlarda oqova xizmatlarini joriy etish, qurilishlarda sifatni ta’minlash va loyiha institutlari mas’uliyatini oshirish, Samarqand shahar Qorasuv massiviga boradigan yangi yo‘l va ko‘prik qurilishi, jamoat transport xizmatidagi muammolar, chiqindilarni olib chiqish xizmatini ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatidagi kamchiliklar, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirishdagi ko‘zbo‘yamachiliklar masalalari qayd etildi.


O‘nga yaqin deputat hisobot yuzasidan savol va takliflarini bildirdi.

A.Shukurov va tegishli idoralar rahbarlari har bir savolga javob berib, ko‘tarilgan muammolar yechimi bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar haqida ma’lumot berdi. Ayrim masalalar mas’ullar tomonidan o‘rganilib, bu haqda Kengashga ma’lumot berilishi ta’kidlandi.

Sessiyada viloyatda pochta aloqasi milliy operatorining infratuzilmasini yanada mustahkamlash loyiha konsepsiyasini kelishish, viloyat hokimining 2024-yil 15-noyabrdagi “Viloyat mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi qarorini tasdiqlash, yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i, yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash muddatini kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) to‘g‘risidagi va boshqa masalalar ham ko‘rilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

Sessiyadan so‘ng Kengash kotibiyati mudiri S.Usmonov Oliy Majlis Senatining birinchi yig‘ilishida davlatimiz rahbari mahalliy Kengashlar faoliyati yuzasidan bildirgan fikrlar asosida yangi chaqiriqda mahalliy Kengashlarning vakolatlari ko‘paygani va shu bilan birga mas’uliyati oshganini ta’kidladi. Bu esa deputatlardan yuksak faollik talab qilishi, Kengashdagi partiyalar deputatlik guruhlari, doimiy komissiyalar ham endi yangicha tartibda ishlashi lozimligi qayd etildi.

Senatdagi ma’ruzasida Prezident Shavkat Mirziyoyev Kengash so‘rovi va Kengash tekshiruvi kabi yangi mexanizmlar orqali hududiy ijro organlari faoliyati ustidan nazorat kuchaytirilishi, mahalliy Kengashlar tomonidan har yarim yilda qilingan ishlar bo‘yicha matbuot anjumanlari o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishini ta’kidlagan edi.



Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalaniladi

Samarqandda “Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning barqaror rivojlanishi uchun atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish istiqbollari: xalqaro va milliy tajriba” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazildi.



Anjumanda Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarlar, Markaziy va Janubiy Osiyo, Rossiya, Yaqin Sharq, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh, Xalqaro atom energetikasi agentligi (XAEA), Butunjahon yadro assotsiatsiyasi (WNA) va boshqa xalqaro tashkilotlar vakillari, O‘zbekiston hukumati va parlamenti a’zolari, xorijiy va mahalliy ekspertlar ishtirok etdi.

Konferensiya avvalida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqaro forum qatnashchilariga murojaatini Prezident matbuot kotibi Sh.Asadov o‘qib eshittirdi.

Davlatimiz rahbarining murojaatida iqlim o‘zgarishlarining salbiy ta’siri va an’anaviy energiya manbalari taqchilligi yaqqol sezilayotgan hozirgi sharoitda tinch atom hayot sifatini oshirish va milliy taraqqiyot strategiyalarini amalga oshirishda muhim muqobil yechim hisoblanishi ta’kidlangan. Atom energiyasi bo‘yicha ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishi mamlakatimiz taraqqiyotiga kuchli turtki berishi hamda yangi ilmiy-texnologik ishlanmalar va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish uchun imkon yaratishiga ishonch bildirilgan.

Shuning uchun mamlakatimizda sohaning huquqiy-institutsional asosi mustahkamlandi, maxsus agentlik tashkil etildi, soha uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Yurtimiz jahonda birinchilardan bo‘lib, xalqaro talab va standartlarga muvofiq kichik quvvatli atom elektr stansiyalarini barpo etishga kirishdi.

Konferensiyaning ochilish marosimida shuningdek, Xalqaro atom energiyasi agentligi (XAEA) bosh direktori Rafael Grossi so‘zga chiqdi.

– Bugun dunyoda kuzatilayotgan iqtisodiy, ekologik muammolarga yechim topish va davlatlarning iqtisodiy rivojlanishida atom energiyasidan foydalanishning ahamiyati oshib bormoqda, – dedi Rafael Grossi. – Tahlillarga ko‘ra, 2050-yilga borib, atom energetikasidan foydalanish uch barobar oshishi kutilmoqda. Shuning uchun ayni paytda rivojlanayotgan davlatlarning aksariyati bunga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu borada keyingi yillarda O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlarga guvohmiz va buni qo‘llab-quvvatlaymiz. Kecha uchrashuvimiz chog‘ida Prezident Shavkat Mirziyoyev bizga o‘z g‘oyalarini tushuntirib berdi. O‘zbekistonning bugun jadal rivojlanayotgan iqtisodiyoti uchun atom energiyasidan foydalanish g‘oyat muhim sanaladi. Lekin Prezident bunda birinchi o‘rinda ushbu texnologiyalardan foydalanishda xavfsizlik muhimligini alohida ta’kidladi. Shu bois tinch atom sohasini rivojlantirish bo‘yicha ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish yuzasidan qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga qaror qildik.

Ochilish marosimidan so‘ng anjumanning yalpi majlisida IHT mamlakatlarida atom energiyasidan foydalanish istiqbollari, jumladan, O‘zbekistonda atom energetikasini rivojlantirish masalasi ko‘rib chiqildi.

Anjuman bir qator shu’balarda o‘z ishini davom ettirdi va ularda atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanishni qo‘llab-quvvatlash va obyektlarning xalqaro standartlar hamda talablarga muvofiq xavfsizligini ta’minlashda xalqaro tashkilotlarning, xususan, XAEAning roli, IHT mamlakatlarida barqaror rivojlanishga erishish uchun atom energiyasidan foydalanishning ekologik va ijtimoiy jihatlari, ta’lim va kadrlar tayyorlash, shuningdek, atom energetikasini rivojlantirish uchun innovatsiyalarni joriy etish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar muhokama etildi.

Hamkorlik

KOICA mutaxassislari Samarqandda



Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) mutaxassislaridan iborat delegatsiya Samarqandga keldi.

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi texnik ko‘mak ko‘rsatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, hamkor davlatlar bilan sheriklik aloqalarini mustahkamlash yo‘li bilan beminnat yordam dasturlarini amalga oshirib kelmoqda.

Koreya Respublikasi Prezidentining joriy yil iyun oyida O‘zbekistonga davlat tashrifi doirasida ikki mamlakat o‘rtasida imzolangan «Qo‘shma bayonoti»da kadrlar siyosatida Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi va Koreya Xalqaro hamkorlik agentligi o‘rtasida hamkorlik aloqalarini muntazam rivojlantirib borish masalasi kiritilgan. Shu asosda Davlat boshqaruvi akademiyasi KOICA bilan yirik grant loyihasini ishlab chiqmoqda.

Mazkur loyihaning texnik moliyaviy rejasini ishlab chiqish va manfaatdor tashkilotlar faoliyati bilan tanishish maqsadida mamlakatimizda mehmon bo‘lib turgan Koreya xalqaro hamkorlik agentligi mutaxassislari Samarqandga keldi.

Delegatsiya a’zolari dastlab viloyat hokimining o‘rinbosari Husan To‘xtayev va viloyat hokimining tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari Behzod Rahmatullayev hamrohligida viloyat hokimligida rahbarlar va davlat xizmatchilari uchun yaratilgan sharoitlarni ko‘zdan kechirdi.

Shundan so‘ng mehmonlar Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Samarqand hududiy filiali faoliyati bilan tanishdi va mazkur yo‘nalishda kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish istiqbollari mutaxassislar ishtirokida muhokama qilindi.

Ta’kidlanishicha, filialda 2023-2024-o‘quv yilida Samarkand, Buxoro va Navoiy viloyatlaridan 927 nafar o‘rta va quyi bo‘g‘in rahbarlar va davlat tashkilotlarining kadrlar bilan ishlash bo‘yicha tarkibiy tuzilmalari boshqaruv kadrlari uchun malaka oshirish kurslari tashkil etilgan bo‘lsa, 2024-2025-o‘quv yilida 800 nafardan ziyod rahbar va davlat xizmatchilarining malakasini oshirish rejalashtirilgan.


- Davlat boshqaruvida kadrlarni o‘qitish va malakasini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq, - deydi KOICA bosh qarorgohi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Choy Xe Jeong. – Buning uchun avvalo, hududlar doirasida ma’lum bir o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va shunga mos sharoit yaratish kerak. Masalan, bizda kadrlarni o‘qitish raqamlashtirilgan bo‘lib, zamonaviy platformalar, sun’iy intellekt orqali onlayn kurslar tashkil etilgan. Bu borada tajribamizni mamlakatingizda ham joriy qilish, loyihalar ishlab chiqish, sohadagi muammo va kamchiliklarga yechim topish borasida mutaxassislar bilan fikr almashdik.

Delegatsiya a’zolari tashrif davomida Samarqandning diqqatga sazovor joylari bilan ham tanishdi.

F.RO‘ZIBOYEV.

Ijtimoiy adolatli jamiyat barpo etishni niyat qilgan, inson qadri ulug‘ bo‘lgan, ishbilarmonlik muhiti yaratilgan va mustahkam kafolatiga ega davlat qurishni o‘z oldiga maqsad qilgan har qanday xalq davlatchilik va huquqiy taraqqiyotning mashaqqatli va sharafli yo‘lini bosib o‘tishi shartdir.
Mustaqillik sabab o‘z erkimizga ega bo‘lganimiz kabi ana shu erkinligimizni kafolatlaydigan milliy qonunchiligimizga ham ega bo‘ldik. Barcha islohotlar xalq farovonligini ta’minlash, insonni e’zozlash va uning haq-huquqlarini kafolatlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

FAROVONLIKNING HUQUQIY ASOSI



Bugun yangi O‘zbekiston demokratik tamoyillar, inson huquq va erkinliklari borasida umume’tirof etilgan prinsip va normalarga asoslangan, pirovard maqsadi xalq uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan ijtimoiy davlatga aylanish sari sobit qadamlar tashlamoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya “Xalq qonunlarning yagona manbai va muallifidir” hamda “Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida va jamoatchilik fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi”, degan tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqilgani bilan ahamiyatli.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya tom ma’noda inson va uning huquq va manfaatlarining qalqoniga aylandi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Yangi Konstitutsiyada inson huquqlariga oid o‘nga yaqin muhim huquqiy kafolatlar taqdim etilgan. Xususan, inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘lishi, insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qilishi hamda qonunlarning, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilashi, hech kimga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emasligi, insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi, har kim mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega bo‘lishi, shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi kabi kafolatlar inson haq-huquqlarining to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqarilishi uchun zamin yaratdi.

Barchamizga ma’lumki, jamiyatda barcha munosabatlarni qonun-qoidalar tartibga soladi. Shunday ekan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Konstitutsiyamiz Vatanimizning davlatchilik tarixidagi o‘tmish saboqlarini, bugungi kun talablarini hamda kelajak avlodlar oldidagi ulkan mas’uliyatni jamlagan asosiy qonundir.

Kontitutsiyamizning 23-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi” degan birgina norma bor edi. Endi esa bu band alohida moddaga aylanib unga ikkita qism qo‘shildi. Ya’ni, “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas” va “Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to‘g‘risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g‘amxo‘rlik qiladi”.

Yana bir jihat, oldingi tahrirdagi Konstitutsiyaning 25-moddasida "Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas" deyilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada esa bu modda 27-modda bo‘lib, unda mazkur yo‘nalishdagi munosabatlarni tartibga solish juda aniq va batafsil belgilangan:

"Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas.

Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko‘ra yo‘l qo‘yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas.

Shaxsni ushlash chog‘ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart".

Demak, bu yerda Jinoyat protsessual kodeksining 226-moddasi aynan Konstitutsiyaning o‘zida aks ettirilganini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiya “Inson – jamiyat – davlat” paradigmasiga asoslangani, unda barcha aholi toifalarining, hatto jinoyat sodir etgan shaxslar huquq va manfaatlari aks etgani bilan o‘ta muhim ahamiyatga ega.

Jumladan, 28-moddada aybsizlik prezumpsiyasi hamda “Miranda qoidasi” mustahkamlandi. Ushbu moddaning birinchi qismida jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishi belgilanganmoqda. Oldingi tahrirdagi Konstitutsiyaning 26-moddasida esa jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi deb qayd etilgan. Qiyoslab ko‘rish mumkinki, mazkur normaga “sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha” jumlasi qo‘shildi. Bu jumla bilan esa shaxsning jinoyat sodir etishda aybdor yoki aybdor emasligiga oid nuqtani faqat sud qo‘yishi mumkinligiga urg‘u berilgan.

Umuman olganda, yuqoridagi singari inson huquqlariga oid bir qator normalarning Bosh qomusimizda mustahkamlanishi Konstitutsiya yurtimizdagi har bir fuqaroning sha’ni va qadri himoyachisi ekanligidan dalolat beradi.

Salohiddin SATTOROV,
viloyat adliya boshqarmasi boshlig‘i.

Majburiyat bajariladi, unutilsa, qimmatga tushadi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasiga muvofiq, fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar. Biroq ayrim yurtdoshlarimiz Asosiy qonunda belgilangan burchlarini unutib qo‘ymoqda. Oqibatda xodimlarimiz tomonidan qonun doirasida tegishli ta’sir choralari qo‘llanilyapti.

Xususan, nazorat tadbirlari davomida chiqindi bilan bog‘liq talablarga rioya etmaslik bo‘yicha 1783 nafar shaxsga nisbatan 1 milliard 47 million 645 ming so‘m ma’muriy jarima qo‘llanilgan.

Ushbu yo‘nalishda Samarqand shahri va tumanida o‘rnatilgan kuzatuv kameralari orqali joriy yilning o‘tgan davrida avtomobilda chiqindilarni belgilanmagan joyga tashlash bo‘yicha 248 holat qayd etilgan.


Aniqlangan holatlar yuzasidan inspektorlarimiz tomonidan 228 nafar shaxsga nisbatan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 91-moddasi 1-qismiga asosan tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi.

Misol uchun, Samarqand shahrida yashovchi R.U. va X.X. o‘z boshqaruvidagi avtomoshinalarga yuklangan qattiq maishiy chiqindilarni belgilanmagan hududga tashlaganligi uchun ularga 1 million 125 ming so‘mdan ma’muriy jarima qo‘llanildi.

Dilshod XUSHVAQTOV,
viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari.

BU FAKT!

Statistika boshqarmasiga ko‘ra, viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Samarqand shahrida 34,9 foiz bilan 8 837,7 milliard so‘mni, eng quyi ulushni esa, Nurobod tumani 1,5 foiz bilan 392,1 milliard so‘mni tashkil etdi.



Halol mehnat qilib, burchimizni vijdonan bajarsak

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.
Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida 2017-yil 3-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni va hamda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Qonun bilan korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, vakolatli organlar tizimi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning mazkur sohadagi ishtiroki, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, jazo muqarrarligini ta’minlash va bu borada xalqaro hamkorlikni ta’minlash kabi choralar mustahkamlab qo‘yildi.

Qonunning 3-moddasiga ko‘ra, korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini, yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir.

Qonunning 5-moddasida esa korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ular aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish murosasiz munosabatlarda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida mamlakat rivojlanishining bugungi bosqichda korrupsiya O‘zbekiston davlati va jamiyati taraqqiyoti uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biri ekanligi qayd etilgan.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tuzildi.

Bugun jamiyatimizda korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni yaratish jamoatchilikning keng ishtirokida amalga oshirilmoqda. Xususan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish tizimi tubdan takomillashtirilib, Prezidentning Xalq va Virtual qabulxonalari, «Ishonch telefoni» hamda har bir vazirlik va davlat idoralarining «ishonch telefonlari», «virtual qabulxonalari» tashkil qilinib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash maqsadida barcha darajadagi davlat rahbarlarining «sayyor qabul» o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Bu esa muammolarning yechimini topishda ochiqlik prinsiplariga amal qilish va korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

Aslida, korrupsiyaga qarshi kurashishni har bir fuqaro o‘zidan boshlashi lozim. Ya’ni, har birimiz zimmamizdagi vazifa, burchni vijdonan bajarib, noqonuniy harakatlardan tiyilsak, halol mehnat qilib, ro‘zg‘or tebratsak va shundan so‘ng boshqalardan ham buni talab qilsak, korrupsiyaga qarshi eng katta harakatimiz bo‘ladi.

Feruza RAHIMOVA,
xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati,
O‘zXDP deputatlik guruhi rahbari.

9-dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni

Bank tizimi korrupsiyadan xolimi?

“O‘zmilliybank” aksiyadorlik jamiyati tizimida Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan aksilkorrupsiya oyligi o‘tkazilmoqda.



Mazkur haftalik doirasida bankning viloyat bosh boshqarmasida “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri tashkil etildi.

- Bank mijozlari turli yoshdagi, har xil maqsad va istaklarga ega bo‘lgan insonlardir, - deydi “O‘zmilliybank” AJ viloyat bosh boshqarmasi xavfsizlik rejimi va axborotni himoyalash bo‘limi boshlig‘i Abdufattoh Ostonaqulov. – Ularning barchasi ham bankka sohaga oid qonunchilikdan xabardor holatda kelmaydi. Shu bois mijozlarga to‘g‘ri ma’lumot va maslahat berish, vijdonan xizmat ko‘rsatish har bir xodimning oldiga qo‘yiladigan asosiy talabdir. Korrupsiya holati nafaqat uni sodir etgan xodim taqdiri, balki butun bank faoliyatiga salbiy ta’sir qiladi. Buning oldini olish uchun tizimda rejali profilaktik tadbirlar, tushuntirish va targ‘ibot ishlari o‘tkazib kelinmoqda.

Tadbirda viloyat adliya boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Orif Muhammadiyev, viloyat prokuraturasi xodimi Ja’far Sharopov, Bosh prokuratura huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi mutaxassisi Shoxruh Shahobiddinov ishtirok etib, mavzu yuzasidan fikr bildirdi. Ta’kidlanganidek, bu illat kecha yo bugun paydo bo‘lgani yo‘q, moddiy va boshqa manfaatlar bor joyda korrupsiyaga ham sharoit topiladi. Unga befarqlik esa ham davlat, ham jamiyat manfaatlariga zarar keltiradi. Shu nuqtai nazardan, bank xizmatida korrupsiyaning oldini olish har tomonlama muhim ahamiyat kasb etadi.

- Joriy yilning o‘tgan vaqtida viloyat bo‘yicha korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etgan 257 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortildi, - deydi Ja’far Sharopov. - Ular tomonidan davlat manfaatlariga 110 milliard so‘m zarar yetkazilgan bo‘lib, hozirgacha shuning 108 milliard so‘mi undirilgan. Achinarlisi, qonunbuzarlar orasida viloyatimizdagi 7 ta tijorat bankining 41 nafar xodimi ham bor. Ko‘rilayotgan choralarga qaramay bank xizmatlarini ko‘rsatish, ayniqsa, kredit ajratish jarayonida korrupsiyaviy harakatlar sodir etilmoqda. Albatta, jinoyat ertami-kechmi fosh bo‘ladi. Faqat buni qonunni buzishdan oldin anglashimiz kerak.

Tadbirda ba’zi xodimlar o‘zi anglamagan holda iqtisodiy jinoyatlarga aralashib qolayotgani ham aytildi. Mutaxassislar ishtirokchilarga shunday holatlarning oldini olish, korrupsiyaga olib keluvchi omillarni bartaraf etish yuzasidan tushuncha berdi.

8 DEKABR

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni

Quyosh nuri bilan ishlaydigan ilk nasos stansiyasi

Payariqda ishga tushadi

Suv resurslaridan oqilona foydalanish XXI asrga kelib insoniyat oldida turgan eng global muammoga aylandi. Haroratning ko‘tarilishi, abadiy muzliklarning qisqarishi, daryolar va hatto dengizlarning qurib borishi, yer osti suv sathining pasayishi yer yuzida suvga bo‘lgan talabning ortishiga olib kelmoqda.

Prezidentimiz raisligida joriy yilning 7-noyabr kuni qishloq xo‘jaligida suv va energiya resurslaridan unumli foydalanish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda ham bu boradagi ishlarga alohida e’tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, klaster va fermerlarga yetkazib berilayotgan har bir kub metr suvga respublika bo‘yicha o‘rtacha 212 so‘m xarajat qilinyapti. Buxoro, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida bu ko‘rsatkich 2-3 barobar yuqori. Keyingi yillarda 1 milliard dollar hisobiga Qarshi, Amu-Buxoro, Amu-Zang kabi yirik nasos stansiyalar modernizatsiya qilingan. Lekin Buxoro, Qashqadaryo, Namangan va Surxondaryoda o‘rta va mayda eskirgan nasoslar yangilanmagani uchun suv tannarxi oshib ketmoqda.

Hozir respublikadagi 2,5 million gektar yerni sug‘orish uchun 1600 dan ziyod nasos stansiya yiliga 6,8 milliard kilovatt elektr sarflayapti. 2017-yilda 2 million gektarga 8,3 milliard kilovatt ishlatilar edi. Xususiy sheriklik asosida tejamkor nasos va quyosh panellarini o‘rnatib, 20 foiz elektrni tejash mumkin.

Qayd etilishicha, xorazmlik 92 nafar dehqon zamonaviy nasos o‘rnatib, elektrni 20 foiz tejamoqda. Ular quyosh paneli o‘rnatish hisobiga ehtiyojidan ortgan elektrni davlatga sotib, oyiga qo‘shimcha 7-8 million so‘m daromad olyapti. Davlat rahbari Xorazm tajribasini kengaytirish maqsadida elektr xarajati uchun subsidiyani nasoslarni yangilash va quyosh panellari o‘rnatishga bog‘lash kerakligini qayd etdi.

Viloyatimizda ham qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda nasoslar yordamida sug‘oriladigan maydonlar bor. O‘tgan asrda o‘rnatilgan nasoslardan foydalanish esa katta energiya sarfini talab etadi.

Raqamlarga qaraydigan bo‘lsak, Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasiga qarashli 94 ta nasos stansiyasi hamda 453 ta sug‘orish, 46 ta meliorativ tik quduq bor. Ushbu nasos stansiyalarda o‘rnatilgan 376 ta agregat yordamida viloyatimizdagi qariyb 70 ming gektar maydon sug‘oriladi. Joriy yilda ushbu nasos stansiyalar va tik quduqlarni ishlatish uchun davlat tomonidan 163,7 million kVt elektr energiya limiti ajratilgan.

- Nasos stansiyalar ekspluatatsiyasi davomida elektrni tejash, agregatlar ishonchli ishlashini ta’minlash maqsadida 2024-yilda samaradorligi yuqori bo‘lgan 9 dona nasos uskunasi va 17 dona elektr dvigatel, 15 dona reaktiv energiyani kompensatsiyalovchi kondensator qurilmasi xarid qilinib, o‘rnatildi, - deydi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari Shokir Rahmonov. - Shuning hisobiga 780 ming kilovatt soat elektr energiyasi iqtisod qilishga erishildi. Boshqarmaga qarashli 27 ta nasos stansiya va 51 ta sug‘orish qudug‘i davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida nasos stansiyalari va sug‘orish quduqlaridan foydalanuvchi korxona va fermer xo‘jaliklariga boshqaruviga berilgan.

Boshqarmamizga qarashli nasos stansiyalarda 2024-2025-yillar kuz-qish mavsumida ta’mirlash ishlari dasturiga ko‘ra, 117 ta nasos agregati va 126 ta tik sug‘orish qudug‘ini ta’mirlash rejalashtirilgan. Hozirgacha 32 ta nasos agregati va 35 ta tik sug‘orish qudug‘ida ta’mirlash ishlari olib borildi. Belgilangan ta’mirlash-tiklash ishlari nasos stansiyalari va energetika boshqarmasining Farhod qo‘rg‘onidagi va Kattaqo‘rg‘on shahridagi gidromexanik uskunalarni ta’mirlash ustaxonalarida bajarilmoqda.

Nasos stansiyalari yordamida chiqarilgan suvning hisobini yuritish maqsadida nasos stansiyalarida 94 dona onlayn suv o‘lchash qurilmalari o‘rnatildi. Stansiyalarda elektr energiyasini tejash uchun 2025-yilda dasturga binoan 8 ta, 16 ta elektr dvigatel, 8 ta kondensator qurilmasi, 7 ta chastota o‘zgartiruvchi qurilma, 12 ta 5 kVt quvvatli quyosh panellari, 310 dona energotejamkor LED lampalar o‘rnatilishi belgilangan va tadbirlar natijasida 1300 ming kVt soat elektr energiyasi tejalishiga erishiladi.

Bugungi kunda elektr energiyasini tejash, muqobil energiya resurslaridan foydalangan holda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish maqsadida ko‘plab innovatsion yechimlar ishlab chiqilgan, amalda sinab ko‘rilganlari ham talaygina. Ishlanmalar orasida quyosh nuridan foydalangan holda elektr energiyasi ishlab chiqarish va uni suv olishga sarflash eng kamxarj yechimlardan bo‘lib qolmoqda. Biroq hozirgacha bu texnologiya yuqori hajmda elektr energiyasi talab etadigan va katta maydonga suv yetkazib beradigan loyihalarda qo‘llanilmagandi. Xitoylik ishbilarmonlar bilan hamkorlikda Payariq tumanida ana shunday loyiha sinov tariqasida amalga oshirildi.

Payariq tumanidagi 10 ta nasos stansiyasida o‘rnatilgan 42 ta agregat yordamida 5 ming gektardan ortiq maydonga suv yetkazib beriladi. Xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan agregatlar ko‘p energiya talab qilishi bilan birga, suv chiqarish hajmi yil sayin kamayib boradi. Xitoyning “Zhejiang tianci new energy technology” kompaniyasi mutaxassislari bilan hamkorlikda tumandagi “Ming chuqur” nasos stansiyasiga quyosh fotoelektrik stansiyasi o‘rnatildi. Shu bilan birgalikda nasos uskunalarini yangilash ishlari ham amalga oshirildi. Ushbu tadbirlar uchun xitoylik investorlar tomonidan 669,2 ming AQSh dollari miqdorida mablag‘ sarflanib, 231 kVt-soat elektr energiya ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan quyosh panellari, 2 dona nasos agregati o‘rnatildi.

- Bu hozircha viloyatda yagona shunday loyiha hisoblanadi, - deydi Payariq tumani suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi boshlig‘i Mahmud Ibragimov. – Bu loyiha sinov bo‘lgani uchun eski nasos stansiyasining yonida 30 sotix maydonda o‘rnatildi, ya’ni avvalgi stansiya ham yangi fotoelektrik stansiya ham ishlashi mumkin. Quyosh panellari batareyasiz, faqat kunduzi ishlaydi va eski stansiyaga nisbatan 30-40 foiz ko‘p suv chiqarish imkoniga ega. Agar zarurat bo‘lsa, kechasi uchun eski stansiya xizmatidan foydalanishimiz mumkin. Yangi stansiyada sinov ishlari bajarildi va bahorgi mavsumdan dehqonlarimizga suv yetkazib berishni boshlaymiz. Agar mazkur loyiha o‘zini oqlasa keyinchalik tumandagi “Suvchi” va “Dehqonobod” nasos stansiyalariga ham quyosh panellari o‘rnatish rejalashtirilgan.

Yangi stansiyaning elektr energiya sarfi bir yilda 345,3 ming kVt dan 305 ming kVtga pasaytirilib, 40,3 ming kVt elektr energiyasi iqtisod qilinadi. Barpo etilgan quyosh fotoelektr stansiyasi yiliga 368,6 ming kVt elektr energiyasi ishlab chiqarishi natijasida elektr energiyasi xarajatlarini qoplash uchun davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘ tejaladi (2024-yilda 423 million so‘m) va 63,6 million so‘m qo‘shimcha daromad olinadi. Ya’ni, ishlab chiqarilgan 368,6 ming kVt elektr eneryasining 305 ming kVti nasos stansiyasi ishlashi uchun ishlatiladi, ortiqcha elektr energiyasi esa davlatga sotiladi.

Ahamiyatlisi, suv chiqarish imkoniyati bir sutkada 33,9 ming metr kubdan 38,9 ming metr kubga ko‘payadi. Elektr energiyasining uzluksizligi natijasida suv yetkazib berish 2,1 million metr kubdan 2,9 million metr kubga oshadi, million sug‘orish mavsumida 371 gektar maydondagi ekinlarning suv ta’minoti yaxshilanishiga erishiladi.

Ma’lumot uchun, keyingi yillarda Payariq tumanidagi “Suvchi”, Bulung‘ur tumanida “Do‘stlik”, Urgut tumanida “Xo‘jayduq-2” va “Ilonli”, Paxtachi tumanidagi “Paxtakor” nasos stansiyalarida ham quyosh panellari o‘rnatish va stansiyalarni yangilash ishlarini olib borish rejalashtirilgan.

O‘ktam XUDOYBERDIYEV,
“Zarafshon” muxbiri.





Gulchilik – qiziqish, tabiatga mehr yoki biznesmi?

Jomboy tumanidan o‘tgan kishi borki, yo‘l bo‘yida turli ranglarda ochilib turgan xrizantema gullariga e’tibor qaratadi. Gulchilikka qiziquvchilar shu yerning o‘zidan xarid qilib, uyida, ishxonasida yoki yo‘l bo‘ylarida shu gulni ko‘paytirmoqda. Xo‘sh, quyoshni sevuvchi bu gulning asl vatani qayer va uni qanday ko‘paytirish mumkin?



- Asli Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahridanman, - deydi Jomboy tumani Nazar mahallasida bir necha yildan buyon xrizantema gulini yetishtirish bilan shug‘ullanayotgan Umid Sheraliyev. – Gulchilikni o‘n besh yil avval boshlaganmiz. Gullar ko‘chat holida Xitoyda tayyorlanadi, biz internet orqali navi, rangi, albatta, xaridorgir bo‘lgan yangi turlaridan buyurtma qilamiz. Hamma gulni ham shunchaki, xohlagan kishi olib kelavermaydi. Buning uchun maxsus ruxsatnoma, karantin talablari bor. Shuning uchun keltirish bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar orqali gul ko‘chatlarini olamiz va o‘zimiz kichik niholdan parvarishlaymiz. Bu gulga talab o‘sib borgandan so‘ng Toshkentda yetishtirishni boshladik. 2020-yilda Jomboyga kelib, “Sobirov Toshmurod” fermer xo‘jaligidan ikkilamchi shartnoma asosida yer oldik. Viloyat hokimining tavsiyasi bilan o‘tgan yili 3 gektardan ortiq maydonda xrizantema yetishtirdik. Bundan tashqari, Samarqand, Toyloq tumanlarida ham yer olib, shu guldan ko‘paytirdik. Bu yil Jomboy va Toyloq tumanida xrizantema parvarishlayapmiz. Jomboy tumanida 1,2 gektar maydonda 25 ming tupdan ortiq gul yetishtirdik.

Bu gul aslida o‘zimizda o‘stirilgan, desak ham bo‘ladi. Chunki ko‘plab xonadonlarda onalarimiz “Sentabr gul” deb nomlanadigan gul o‘stirishgan. Xitoylik olimlar bu gulning genini o‘zgartirib, yangi nav yaratishgan. Bu gul sovuqqa, kasallik va zararkunandaga chidamli. Payvand yoki ildizidan emas, faqat hujayradan ko‘paytiriladi. Avval boshida 3 xil - qizil, sariq va oq navlari bor edi. Hozir 30 xildan ortiq nav yaratilgan.

Katta dalalarda, ya’ni sotish uchun mo‘ljallanganda bu gulni iyun oylarida ekkan ma’qul ekan. Chunki issiqsevar gul uch oyda kattarib, kuz fasliga kelganda sotishga tayyor bo‘ladi. Xonadonlarda esa mart-aprel oylarida ekish mumkin.

Gulchining o‘zi ham 1,2 gektar maydonda 10 iyunda gul ko‘chatlarini ekkan. Bu fermerga ertagi hosilni yig‘ishtirib olish imkonini ham beradi. Demak, takroriy maydonda ham yetishtirsa bo‘ladi. Bog‘bon 3 nafar doimiy va 15 nafar mavsumiy ishchining mehnatidan foydalanadi. Quyosh nurini sevadigan gul ko‘chatlari 70x70 o‘lchamda, odatiy ekinlar kabi ekiladi. Mavsum davomida 4-5 marotaba chopiq va shuncha sug‘oriladi. Mehnati unchalik og‘ir bo‘lmaganligi va ildizidan ko‘paytirish qulayligi uchun shu yerdan gul xarid qilib, keyingi yildan ko‘chatni ko‘paytirayotganlar ham bor ekan.

- Gulni kuzda kesib, tomirini issiqxona yoki muzlamaydigan yerga ko‘mib qo‘yamiz, – deydi U.Sheraliyev. - Bu bahorda ildizidan ko‘proq nihol unib chiqishiga yordam beradi. Bizga ko‘proq nihol kerak bo‘lgani uchun ham shunday qilamiz, uy sharoitida esa shunchaki barg-shoxlarini kesib qo‘ysa ham bo‘ladi.

Daromadimiz o‘rtacha 300 million so‘m atrofida bo‘ladi. Yangi navga talab yuqori bo‘lgani uchun qimmatroq, o‘tgan yilgi navlar biroz arzonroq sotiladi. Bu yilgi yangi nav mitti qizil gulli xrizantema bo‘ldi.

O‘.XUDOYBERDIYEV.

KO‘RSATKICHLAR RAQAMLARDA

2024-yil yanvar-sentabr oylarida 117,4 million dollarlik 118,7 ming tonna meva va sabzavot eksport qilingan. Bu 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,3 million dollarga ko‘p.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy bozori Rossiya (40,8 foiz), Xitoy (11,2 foiz), Turkiya (11 foiz) hamda Ozarbayjon (5,5 foiz) davlatlari bo‘ldi.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida 47968 dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 8 foizini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarish sur’ati 67,1 foizni tashkil qildi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (47,1 foiz), gilam mahsulotlari (20,7 foiz) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 93 turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 26 ta davlatiga eksport qilindi.

2024-yilning 9 oyida import hajmi 1590,1 million dollarni va 2023-yilning mos davriga nisbatan 106,3 foizni tashkil etgan. Import tarkibida eng yuqori ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (31 foiz), kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (26,4 foiz) hamda sanoat tovarlari (24,8 foiz) hissasiga to‘g‘ri keldi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga o‘rtacha chakana savdo tovar aylanmasi 5486 ming so‘mni (2023-yilning shu davriga nisbatan 106,2 foiz) tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (13284,9 ming so‘m), Samarqand tumani (9341,8 ming so‘m), Kattaqo‘rg‘on shahri (8943,7 ming so‘m) va Bulung‘ur (6929,5 ming so‘m) tumani hissasiga to‘g‘ri keldi.

Joriy yilning 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 11432 tani tashkil etdi. Shu davrda viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 23271,1 milliard so‘mni, 2023-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 108,5 foizni tashkil etdi.



Oqdaryoda agrar tarmoqning yangi loyihalari ishga tushdi

Chorvachilik agrar tarmoqning eng muhim bo‘g‘inlaridan hisoblanadi. Bu sohaning rivoji aholining sut, qatiq, go‘sht kabi salomatlik uchun muhim oziqlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilsa, teri mahsuloti qayta ishlash sanoatida zarur xomashyo hisoblanadi.

Qolaversa, chorvachilikning kengayishi ichki bozorni to‘ldirish va importni kamaytirishga ham yordam beradi. Shu bois tumanlarda chorvachilik loyihalarini amalga oshirish va subyektlar faoliyatini kengaytirishga katta e’tibor qaratiladi. Jumladan, Oqdaryo tumanida ham bu yo‘nalishdagi xo‘jaliklarda chorva bosh sonini ko‘paytirish sifatini yaxshilash, mahsuldorlikni oshirishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Tumanda chorvachilik tarmog‘ida qiymati 136 milliard 536 million so‘mga teng bo‘lgan 6 ta loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Loyihalar 49 milliard 700 million so‘m tadbirkorlarning o‘z mablag‘i va 6 million 500 ming dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan tashkil etilishi ko‘zda tutilgan.

Jumladan, tumandagi “Agro Bravo chorvasi” fermer xo‘jaligi Qirg‘izistondan nasldor chorva mollari keltirish loyihasini amalga oshirmoqda. Qiymati 3 milliard so‘m bo‘lgan loyiha doirasida 5 ta qo‘shimcha ish o‘rni yaratiladi. “Nusrat Nasldor chorvasi” fermer xo‘jaligi ham Qirg‘izistondan 6 milliard so‘mlik loyiha asosida 400 bosh zotdor chorva mollari keltirildi va 10 nafar ishsiz yangi ish joyiga ega bo‘ldi.

Chorvachilikning yana bir tarmog‘i bo‘lgan parrandachilik yo‘nalishida “PRESTIJ DON” MChJ tomonidan qiymati 25 milliard so‘m bo‘lgan yirik loyiha ishga tushirildi. Natijada 20 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Bugungi kunda korxona tomonidan Vengriya davlatidan 41 ming 886 bosh bir kunlik naslli jo‘ja olib kelinmoqda.

Tarmoqning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan quyonchilikka ham e’tibor katta. 2024-yil quyonchilik yo‘nalishida qiymati 300 million so‘m bo‘lgan loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan. “Zindontepa barakasi” fermer xo‘jaligida quyonchilikni rivojlantirish borasida amaliy harakatlar olib borilmoqda.

Farhod ERGASHEV,
Oqdaryo tumani chorvachilik va veterinariya bo‘limi boshlig‘i.

Sarhisob

Qishloq xo‘jaligi – jadal rivojlanayotgan tarmoq

Qishloq xo‘jaligi sohasi bugungi kunda iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biriga aylandi. Keyingi yillarda sohada qayta ishlash, logistika tarmoqlari, mahsulotni saqlash va eksport qilish imkoniyatlari kengaydi. Yangi ish o‘rinlari ko‘paydi. Asosiysi, dehqonchilikda ilm-fan yutuqlari, innovatsion ishlanmalar, yangi texnika va texnologiyalardan foydalanilmoqda.



MAYDON O‘ZGARMASDAN HOSILDORLIK ORTYAPTI

Joriy yilda viloyatimiz paxtakorlari 72 ming gektar maydonda chigit qadab, parvarishlashdi. Natijada paxta hosildorligi gektariga o‘rtacha 38 sentnerga yetdi. Viloyatdagi paxta yetishtiruvchi 2217 fermer xo‘jaligi 58,1 ming gektar yerda ertapishar 6,6 ming gektarda mahalliy yangi navlar hamda 7,3 ming gektarda xorijiy navlar ekdi. Shu o‘rinda e’tibor qaratadigan jihati o‘tgan yil bilan solishtirilganda, g‘o‘za ekin maydoni o‘zgarmagan bo‘lsa-da, hosildorlik gektariga 1,8 sentnerga yoki 27 ming tonnaga oshdi. Yetishtirilgan hosilning 19 foizi terim mashinalari yordamida yig‘ishtirib olindi.

94,2 ming gektar maydonga kuzgi boshoqli don ekilib, 821,9 ming tonna hosil tayyorlandi. O‘rtacha hosildorlik gektariga 87,1 sentnerni tashkil etdi. Raqamlar o‘tgan yil bilan solishtirilganda, maydon o‘zgarmagan holda hosildorlik gektariga 13,3 sentnerga, yetishtirilgan hosil esa 126,9 ming tonnaga oshdi.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI - ASOSIY VAZIFA

Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishining asosiy maqsadi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan. Shundan kelib chiqib, 2024-yil hosili uchun 33084 gektar sabzavot ekinlari, 1165 gektar poliz ekinlari, 20 ming gektar asosiy maydonda kartoshka ekildi.

Viloyat aholisini 2024-yilda 10 turdagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlari (kartoshka, piyoz, sabzi, un, guruch, go‘sht, o‘simlik moyi, go‘sht, parranda go‘shti, tuxum va sut) bilan ta’minlash chora-tadbirlari belgilandi. Bu boradagi rejalar ortig‘i bilan bajarildi. Asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini yanada ko‘paytirish, aholi tomorqalari, dehqon va fermer xo‘jaliklari yerlari, ayniqsa, dala chetlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hisobiga ichki bozorda narxlar barqarorligi ta’minlandi.

CHORVACHILIK ENG MUHIM TARMOQLARDAN

Viloyatda qoramol bosh soni 1,7 millionga yetdi va o‘sish 102 foizni tashkil etdi. Xo‘jaliklarda 326,2 ming tonna go‘sht (tirik vaznda) tayyorlanib, 1 million 40 ming tonna sut ishlab chiqarildi. Chorva mollari naslini yaxshilash uchun xorijdan 3900 bosh qoramol va 13275 bosh qo‘y-echki olib kelindi. Qiymati 760,1 milliard so‘mlik 458 ta loyiha ishga tushdi va 2553 ta ish o‘rni yaratildi. Hozirgacha 388 ta qoramolchilik (652,8 milliard so‘m), 25 ta parrandachilik (57,5 milliard so‘m), 29 ta baliqchilik (18,7 milliard so‘m), 10 ta qo‘y-echkichilik (21,8 milliard so‘m), 5 ta asalarichilik (7,6 milliard so‘m) loyihalari amalga oshirildi. Ozuqa bazani mustahkamlash uchun asosiy maydonlarda 16,1 ming gektarda ozuqabop ekinlar ekildi. 31 ta intensiv gidroponika texnologiyasi asosida ozuqa ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Joriy yilda viloyatda chorvachilikni rivojlantirish bo‘yicha umumiy qiymati 600 milliard 670 million so‘mlik 82 ta loyiha ishga tushirildi.

Yil yakuni bilan barcha toifadagi xo‘jaliklarda qoramollar bosh sonini 1 million 804 mingga yetkazish rejalashtirilgan.

“Yetti xazinaning biri” bo‘lgan parranda soni 15,3 million boshni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 107 foizga oshgan. Sohada 166 ming tonna parranda go‘shti yetishtirilgan, 1,3 milliard dona iste’mol tuxumi ishlab chiqarildi. Darvoqe, parrandachilik sohasida viloyatimiz respublikada yetakchi sifatida e’tirof etiladi. Hozir viloyatda 213 ta parrandachilik xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Viloyatdagi 513 ta baliqchilik xo‘jaligi 1,034 ming gektar sun’iy suv havzasi va 2,3 ming gektar tabiiy suv havzasida faoliyat yuritmoqda. Mavsum davomida suv havzalaridan 17,9 ming tonna baliq ovlandi, 398 gektar sun’iy suv havzalari intensivlashtirildi. Bu sohada umumiy qiymati 18,7 milliard so‘m bo‘lgan 29 ta loyiha ishga tushirilib, 185 ta ish o‘rni yaratildi. Yaqin yillargacha baliqchilik xo‘jaliklari boshqa viloyatlardan baliq chavoqlari keltirardi. Endilikda viloyatdagi baliq chavoqlari yetishtirishga ixtisoslashgan xo‘jaliklarda 60 gektar maydonda reproduktor havzalar ishga tushirilib, ularning maydoni 470 gektarga, quvvati 42 million donaga yetkazildi.

Asalari oilalari soni 98 ming donani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 113 foizga oshdi. Jami 1,3 ming tonna asal yetishtirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106 foizga ko‘paydi. “Har bir oila - tadbirkor” davlat dasturi doirasida 1150 ta aholi xonadonida tijorat banklarining kredit mablag‘lari hisobidan 11,5 mingdan ortiq asalari oilasi boqilishi yo‘lga qo‘yildi.

2023-yilda qiymati 116,1 milliard so‘mlik 321 ta qishloq xo‘jaligi texnikasi xarid qilingan bo‘lsa, 2024-yilda 174,4 milliard so‘mlik 650 ta qishloq xo‘jaligi texnikasi sotib olinib, texnika ta’minoti 84 foizdan 87 foizga yetkazildi.

SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALAR - MUAMMONING YAGONA YECHIMI

Bu yil viloyat bo‘yicha 28 ming gektar ekin maydonlarida suv tejovchi texnologiyalar joriy etildi. Buning hisobiga 78 million metr kub suv iqtisod qilinishiga erishildi.

EKSPORT SALMOG‘I ORTMOQDA

2023-yilda viloyatimizdan 172,3 million dollarlik meva-sabzavot eksport qilingandi, 2024-yilda esa bu ko‘rsatkich 355 million dollarni tashkil qildi.

Meva-sabzavotni saqlash uchun viloyatda 211 ming tonnalik 10 ta agrologistika markazi hamda 200 ming tonnalik 251 ta sovutkichli omborxona faoliyat yuritmoqda. Joriy yilda loyiha qiymati 90,8 million dollarlik yana 8 ta sovutkichli sig‘imlar loyihasi amalga oshirildi.

Bugun viloyatda 12 ta paxta-to‘qimachilik, 11 ta g‘allachilik, 12 ta meva-sabzavotchilik, 6 ta kartoshkachilik va 1 ta dorivor o‘simliklar agroklasteri faoliyat ko‘rsatmoqda.

Investitsiya dasturi doirasida 3,02 trillion so‘mlik 145 ta loyihani ishga tushirish hisobiga 2400 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish loyihalari doirasida jami 146,3 mingta ish o‘rni yaratilmoqda.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda ilm-fan yutuqlari, innovatsion g‘oyalarni tatbiq qilish nihoyatda muhim. Shu bois agroxizmatlarni rivojlantirish va ilm-fan yutuqlarini joriy etishda tumanlarda “Agrobank” bilan hamkorlikda agromarkazlar tashkil etilib, fermerlar maktabi, karantin va veterinariya xizmatlari integratsiya qilindi.

IPAKCHILIK VA JUN SANOATI E’TIBORGA MUHTOJ DAROMADLI SOHALAR

Ko‘p yil davomida ipakchilikka yetarlicha e’tibor qaratilmadi. Natijada ipak qurti boqishga ishtiyoq pasaydi, majburiyatlar qog‘ozda bajarilgan holatlar ham bo‘ldi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan sohaga e’tibor kuchaytirildi. Ipak qurti boquvchilar uchun rag‘bat kuchaydi, mavsumda ipak qurti boqqanligi uchun ish staji hisoblanadigan bo‘ldi. Ipak qurti xomashyosi bo‘lgan tut daraxti ekilishiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Joriy yilda 11,4 million dona tut ko‘chati ekildi va 60,3 ming quti ipak qurti boqilib, 3558 tonna pilla xomashyosi tayyorlandi. Sohada 66 ming nafar aholining bandligi ta’minlandi, 11 ta qayta ishlovchi korxonada 246 milliard so‘mlik ipak mahsulotlari ishlab chiqarildi. 20 million dollarlik mahsuloti eksport qilindi.

TO‘QSONBOSTI - QISHKI DAROMAD

Dehqonchilikda “to‘qsonbosti” usuli dehqonlarimiz tomonidan qadimdan qo‘llab kelinadi. Bu usulda ekilgan urug‘ 90 kunlik qishni qor ostida o‘taydi. Shu sababdan ham bu usulni dehqonlarimiz “qorbosti” yoki “to‘qsonbosti” deb atashadi. To‘qsonbosti usulida ekish sovuqqa chidamli sabzavotlardan erta ko‘klamda arzon va mo‘l sabzavot yetishtirish imkonini yaratish barobarida, kundalik oziq-ovqat mahsulotlari tanqis “ilikuzildi” paytida ichki bozor ehtiyojini qoplaydi, eksport imkoniyatlarini kengaytirib, dehqonlarni boyitadi.

Bu yilgi mavsumda 2025-yil hosili uchun barcha toifadagi xo‘jaliklarda 70 ming 379 gektar maydonda to‘qsonbosti usulida sabzavot ekinlari ekildi.

Bu harakatlar aholining ehtiyojini qondirish, bozorlar to‘kinligini ta’minlash va barqarorligini saqlashga xizmat qiladi.

Ruslan MURODOV,
viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi shu’ba boshlig‘i.

Anjumandan so‘ng

Mahalla instituti xalqaro e’tirof topdi

Joriy yilning 2-5-oktabr kunlari Samarqandda “Aholining turmush darajasini oshirishda mahallaning o‘rni” mavzusidagi I xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tgan edi.



Birlashgan Millatlar Tashkilotining O‘zbekistondagi vakolatxonasi, Taraqqiyot dasturi (UNDP), Bolalar jamg‘armasi (UNISEF), Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA), AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) singari nufuzli xalqaro tashkilotlar hamkorligida o‘tkazilgan anjuman yakunida deklaratsiya imzolandi. Yaqinda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh qarorgohida mazkur deklaratsiya 194 davlat vakillari tomonidan rasmiy hujjat sifatida qabul qilingani ma’lum qilindi.

Xo‘sh, hujjatning xalqaro ahamiyati nimada va bu bizga nima beradi?

Samarqand deklaratsiyasining xalqaro darajada e’tirof etilishi, avvalo, jahon hamjamiyatini O‘zbekistonda mavjud o‘zini o‘zi boshqarishning o‘ziga xos “mahalla” tizimi bilan tanishtirish, shuningdek, xalqaro o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotlari bilan hamkorlikni mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadam deyish mumkin. Xususan, hujjatda UNISEF bugungi tez o‘zgaruvchan va xavfli dunyoda mahallani Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani amalga oshirishning kuchli platformasi sifatida ko‘rishini bayon qilgan. UNDPning O‘zbekistondagi vakolatxonasi esa mahallalarni fuqarolik jamiyatining muhim elementi sifatida e’tirof etib, ularni dasturlari orqali qo‘llab-quvvatlashini bildirgan.

Deklaratsiyani o‘rganar ekansiz, unda mahalla institutining yutuqlari e’tirof etilishi bilan birga, uning faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator taklif va vazifalar ham belgilanganligini ko‘rasiz. Jumladan, hujjatda har bir mahallaning xususiyatlaridan kelib chiqib, fuqarolar yig‘inlarida kadrlar va shtat birliklarini tanlash mezonlari va standartlarini, mahallalarga mahalliy Kengashlar sessiyalariga takliflar kiritish huquqini beradigan yangi qonunni ishlab chiqish kerakligi ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, mahalla va aholi o‘rtasida “ijtimoiy shartnoma” tuzish orqali fuqarolarning obodonlashtirish ishlaridagi ishtirokini kuchaytirish, uy-joylarni saqlash va shaxsiy tomorqalardan samarali foydalanish madaniyatini oshirish, raislarga ishsizlarni obodonlashtirish va mavsumiy ishlarga jalb etish hamda ularga Jamoat ishlari jamg‘armasi hisobidan ish haqi to‘lash vakolatini berish taklifi ilgari surilgan. Deklaratsiyada bolalar bog‘chasi, maktab yoki poliklinikalar qurish bo‘yicha qarorlarni vazirlik yoki hokimliklar emas, mahallalarning o‘zi qabul qiladigan tizim yaratish kerakligi ham aytiladi.

— Konferensiya mahalla instituti va fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston tajribasini xorijda keng targ‘ib etish imkonini berganligi bilan ahamiyatli bo‘ldi, - deydi O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi shu’ba boshlig‘i Shoxruh Ahrorov. – Misol uchun, anjumanda Qozog‘iston Respublikasi “Oshak barqaror rivojlanish markazi” rahbari Moldabay Sarqitbek Qozog‘istonda O‘zbekiston tajribasidan foydalangan holda “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning umumiy prinsiplari to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish va tuman doirasida mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida “Oshak” pilot loyihasini ishga tushirish takliflarini bildirdi. Xalqaro tashkilot mas’ullari ham mahalla instituti imkoniyatlarini yuqori baholab, u bilan hamkorlikka tayyor ekanliklarini ma’lum qilishdi. Bu biz uchun ham, xalqaro hamjamiyat uchun ham manfaatli hisoblanadi.

Hujjatda “Mahalla servis” kompaniyasi faoliyatini takomillashtirish, “Ijtimoiy fikr”ni o‘rganish bo‘yicha nodavlat markazlarni tashkil etish, davlat xizmatlarini bevosita mahallalarda joriy etish, ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishga jamoatchilikni jalb qilish uchun zamonaviy platforma yoki veb-sayt yaratish singari bir qator dolzarb vazifalar belgilangan.

Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi va bo‘limlariga hokim o‘rinbosari rahbarlik qiladi

Hokimlarning qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari bir vaqtning o‘zida qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (bo‘limi) boshlig‘i hisoblanadi. Bu Prezidentimizning joriy yil 2-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilandi.



Qarorga asosan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tuzilmalariga – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining va viloyatlar hokimlarining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vaziri, viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i lavozimi;

- tuman hokimliklari tuzilmalariga – hokimning qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i lavozimi kiritiladi.

Bungacha hokimlarning qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligi tuzilmasidagi qishloq xo‘jaligi boshqarmalari (bo‘limlari) boshlig‘i lavozimlari alohida edi. Yangi qaror bilan Qishloq xo‘jaligi vazirligi tuzilmasidagi bu lavozim qisqartirilib, bo‘shagan shtatlarga oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga mas’ul xodim lavozimi joriy etiladi.

Hokim o‘rinbosarlari oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohalarini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirish orqali sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilishga mas’ul bo‘ladi.

Ozarbayjon NNTlari vakillari Samarqandda

Prezidentning joriy yil 26-avgustdagi tegishli farmoni bilan yurtimizda har yili dekabr oyining birinchi haftasida “Fuqarolik jamiyati haftaligi”ni tashkil etish belgilandi. Joriy haftalik doirasida poytaxtda O‘zbekiston va Ozarbayjon nodavlat notijorat tashkilotlari forumi o‘tkazildi.

Forumda ishtirok etish uchun kelgan Ozarbayjon delegatsiyasi Samarqandda bo‘lib, Do‘stlik uyida viloyatda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari, turli diaspora vakillari bilan uchrashdi.

Do‘stlik uyida yaratilgan sharoit, “Xayrli niyat” yetim bolalar va nogironlar xayriya jamiyati, madaniyat va san’at xodimlarining “E’zoz” assotsiatsiyasi, Ozarbayjon milliy madaniyat markazi viloyat bo‘linmasi faoliyati, ularning a’zolari ijod namunalari ko‘rgazmasi mehmonlarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Davra suhbatida O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi viloyat hududiy bo‘linmasi boshlig‘i Shoim Kenjayev yurtimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so‘z yuritdi. “Sabr” respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish markazi ijrochi direktori Madina Rahimova, respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi Samarqand mintaqaviy filiali direktori Otabek Qosimov O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining qonuniy asoslari, ijtimoiy masalalarni yechishdagi o‘rni va vazifalari haqida ma’lumot berdi.



— O‘zbekistonga ikkinchi marotaba kelishim, - deydi Ozarbayjon Nuroniylar kengashi raisi o‘rinbosari Ramin Gasanli. – Birinchi navbatda Samarqandni ziyorat qilishni rejalashtirgandik. Boisi bu shahar biz uchun ham, qardosh boshqa millat vakillari uchun ham muqaddas joy hisoblanadi. O‘ylaymanki, forum doirasida yo‘lga qo‘yiladigan hamkorligimiz davlatlarimiz va xalqimiz o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tashrif doirasida mehmonlarning muqaddas qadamjolar, tarixiy obidalarga sayohati tashkil etildi.

A.BAROTOV,
B.MUSTANOV (surat).

OGOH BO‘LING, MAGISTRAL GAZ QUVURLARI!

Magistral gaz quvurlarining muhofaza hududida xavfsizlik choralarini ko‘rish g‘oyatda muhim. Viloyatimizning Narpay, Kattaqo‘rg‘on, Nurobod, Past Darg‘om, Samarqand, Oqdaryo, Toyloq, Urgut, Jomboy, Bulung‘ur tumanlari hamda Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlari hududi bo‘ylab aholi punktlari va sanoat korxonalarini tabiiy gaz bilan ta’minlovchi, yuqori bosimga ega magistral gaz quvurlari yotqizilganligini hisobga olsak, masala kundek ravshan. Shu sababli hamyurtlarimizga murojaat qilmoqdamiz.



Ekspluatatsiyaning normal sharoitini ta’minlash va quvurlar buzilishiga (ularning har qanday o‘tkazilishidan qat’i nazar) yo‘l qo‘ymaslik uchun “Magistral gaz quvurlarning himoyasi qoidasi”ga va O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 69-moddasiga asosan, muhofaza hududi o‘rnatilgan.

Magistral gaz quvurlari tarkibiga gaz quvurlari, gaz taqsimlash stansiyalari, kran tugunlari, elektr kimyoviy himoyalash uskunalari (EHZ), yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari (LEP), gaz quvurlari trassasi bo‘ylab yotqizilgan yo‘llar, gaz quvurlarini bildiruvchi va tanituvchi belgilar kiradi.

Quvurlarning muhofaza hududiga kiruvchi maydonlar yerdan foydalanuvchilardan olib qo‘yilmaydi, faqat mazkur maydonda magistral gaz quvurlarini muhofaza qilish qoidalariga qat’iy rioya etgan holda qishloq xo‘jaligi yoki boshqa turdagi ishlarni olib borish mumkin.

Muhofaza hududida quvurlarning me’yorida ishlashiga xalaqit beruvchi yoki ularga shikast yetkazuvchi har qanday turdagi ishlarni bajarish taqiqlanadi. Xususan:

- har qanday qurilish ishlarini olib borish, doimiy va vaqtinchalik imoratlar qurish;



- har xil turdagi daraxt va butalarni ekish, yem-xashak, ozuqa, o‘g‘it va materiallarni to‘plash, pichan g‘amlash, chorva mollarini saqlash va suv ichadigan hovuzlar qurish, baliq yetishtirish uchun uchastkalar ajratish va baliq hamda boshqa suvda yashovchi va suzuvchi hayvonlarni parvarishlash;

- quvur yo‘nalishi ustidan o‘tish va kesib o‘tish yo‘llarini qurish, traktor va boshqa og‘ir mexanizmlar uchun turarjoylar barpo etish, jamoat bog‘lari va polizlarni tashkillashtirish;

- turli xil qurilish-montaj, portlatish va burg‘ulash ishlarini amalga oshirish, tuproqni surish va tekislash;

- melioratsiya ishlarini bajarish, sug‘orish va suv qochirish kanallarini qurish, chuqurlashtirish;

- nazorat-o‘lchov quduqlari, nazorat-o‘lchov punktlari, bildiruvchi va ogohlantiruvchi belgilarni buzish, joylarini o‘zgartirish;

- kabel aloqasi xizmat ko‘rsatilmaydigan kuchaytiruvchi punktlarning qopqoqlarini, kimyoviy himoyalash stansiyasi va boshqa uskunalar atrofiga o‘rnatilgan sim to‘siqlarni ochish va ichiga kirish, kranlar, zulfinlar va jo‘mraklarni ochish yoki yopish, aloqa vositalari va energiya ta’minoti uskunalarini o‘chirish va yoqish;

- belgilangan hududda turli xil chiqindilarni yig‘ish, yerga ishqorlar, tuzlar, kislota eritmalarini to‘kish;

- har xil maqsadlarda olov yoqish, quruq xashak va somonlarni yoqish;

- himoya hududlarida sun’iy havzalar va sholi ekinlari ekish.

Magistral gaz quvurlarini himoya qilish qoidalarining buzilishida aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra javobgarlikka tortiladi.

Magistral gaz quvurlari bo‘ylab xavfsizlik yer uchastkasi ko‘rinishida, quvur o‘qining har ikki tomoniga 50 metrgacha masofada shartli chiziqlar bilan chegaralangan bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligiga taalluqli yerlardan himoya maydoni magistral gaz quvurlarining o‘qidan har ikki tomoniga 25 metr masofada o‘tadigan shartli chiziqlar bilan chegaralanadi.

Gazdan kondensatni ajratish va saqlash uchun sig‘imlar atrofida, neft, kondensat va siqilgan uglevodorodlarni avariya holatida chiqarish uchun yer omborida ko‘rsatilgan obyektlar maydoni chegarasida har tomoniga 50 metrdan tutashgan chiziq bilan chegaralangan uchastka ko‘rinishida bo‘ladi.



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-dekabrdagi “Gaz transporti tizimi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 651-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasida “Qurilish me’yorlari va qoidalari” (QMQ 2.05.06-97) me’yoriy hujjatlari asosida magistral gaz tarmoqlari atrofida quvurlar diametriga mos holda muhofaza hududlari belgilangan.

Unga ko‘ra, diametri:

- 1200 mm.dan 1400 mm.gacha bo‘lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o‘qidan har ikki tarafga – 350 metr;

- 1000 mm.dan 1200 mm.gacha bo‘lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o‘qidan har ikki tarafga – 300 metr;

- 800 mm.dan 1000 mm.gacha bo‘lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o‘qidan har ikki tarafga – 250 metr;

- 600 mm.dan 800 mm.gacha bo‘lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o‘qidan har ikki tarafga – 200 metr;

- 300 mm.dan 600 mm.gacha bo‘lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o‘qidan har ikki tarafga – 150 metr;

- 300 mm. va undan kichik bo‘lgan magistral gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o‘qidan har ikki tarafga – 100 metr va gaz taqsimlash shoxobchalari har tomondan himoya hududi (muhofaza hududida har qanday ishlarni olib borish taqiqilangan) 100 metr.

Shu bilan birgalikda, aholi e’tiborini quyidagilarga qaratmoqchimiz. Davlatimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatiga ko‘ra, aholi tomonidan tegishli mahalliy hokimiyatlar ruxsatisiz avvaldan qurilib, hozirda aholi istiqomat qilib kelayotgan ayrim uy-joylar ham tegishli hujjatlar orqali egalariga mulk sifatida rasmiylashtirib berilmoqda. Lekin magistral gaz quvurlarining xavfli hududida, boshqacha aytganda, “Qizil hudud” ichida qurilgan noqonuniy imoratlar uchun bu yengilliklar tatbiq etilmaydi va bunday imoratlar buzilishi kerak bo‘ladi.

Agarda hamyurtlarimizning yer uchastkasi yoki dehqonchilik qilayotgan maydoni magistral gaz quvurlari yaqinida joylashgan bo‘lsa, biror turdagi qurilish ishlarini boshlashdan oldin shu gaz quvuriga xizmat ko‘rsatuvchi boshqarmaga murojaat qilib, ish ko‘rish tavsiya etiladi. Shunday holda fuqarolar o‘zboshimchalik bilan qurilgan noqonuniy imoratni buzilishi bilan bog‘liq ortiqcha asabbuzarlik va keraksiz moddiy chiqimlardan xoli bo‘lishadi.

Magistral gaz quvurlari qoidalari buzilishiga sabab bo‘lgan mansabdor shaxslar va fuqarolar O‘zbekiston Respublikasi “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksning “Magistral quvurlari himoyasi qoidalarini buzish haqida”gi 150-moddasiga asosan ma’muriy javobgarlikka tortiladilar.

Tashkilot manzili:
Samarqand tumani Gulobod maskani, Gazchilar qo‘rg‘oni.
Telefonlar: +99866-612-56-01, 612-53-04, +99899-022-77-12.

O‘ktamxon TUROPOV,
Samarqand magistral gaz quvurlari boshqarmasi boshlig‘i.
Iskandar SHUKUROV,
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi Samarqand hududiy bo‘limi bosh mutaxassisi.

O‘ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASINING
SAMARQAND VILOYATI KENGASHI

barcha yurtdoshlarimizni 8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilingan kun va Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni munosabati bilan qutlaydi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi

HAR BIR XONADONGA FAYZU BARAKA, OSOYISHTALIK TILAYMIZ!



DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasida marhum Ishankulov Nurmamad Nurmuxamedovichga (2013-yil 10-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 36-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Nurbekov Nematga (2018-yil 16-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug‘bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Raximbekov Qaxramon Tuxtamurodovichga (2022-yil 24-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Murtazayev Ulug‘bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko‘chasi, 12-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Isroilova Dilafruz Ravshanovnaga (2022-yil 13-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasida marhum Danabayeva Adolatga (2022-yil 24-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko‘chasi, 4-“A” uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Atakulov Shamidullaga (2016-yil 23-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Abdukadirov Kamilga (2023-yil 18-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 51-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Xamidov Sobirga (2023-yil 30-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sug‘diyona maskani, 14/12-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Musinov Ikrom Xamidovichga (2024-yil 22-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Raximov Ismoilga (2000-yil 25-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Raxmanov Murtazaga (1985-yil 26-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 158-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Karpova Ismiga (2024-yil 20-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Kubayev Quchqorboy Xudoyberdiyevichga (2006-yil 11-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Payariq tumanidagi “PAYARIQ-KLASTER” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 307266114) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi jamiyat ishtirokchilarining 2024-yil 1-noyabrdagi umumiy yug‘ilishi 02-sonli bayonnomasiga asosan yangi eskizdagi dumaloq muhri va burchak tamg‘aga o‘zgartirilishi munosabati bilan bekor qilinadi.

* * *

“KAFOLAT sug‘urta kompaniyasi” AJ Samarqand viloyat filiali hisobidagi 6 dona GB shakldagi 60225, 60226, 60227, 60228, 60229, 60230, A4 shakldagi 4 dona 247026, 247027, 453630, 404762, BYu shakldagi 1 dona 38276, A5 shakldagi 1 dona 226457 raqamli sug‘urta polislari yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Sotuvchi Ochilov Olimjon Obidovich va sotib oluvchi Nurdiev Baxodir Burxanovichlar o‘rtasida Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, «Bo‘ston» MFY, Dilband ko‘chasi, 5-uy, 1-manzilda joylashgan savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchasining bir qismi, 1 va 2-xonasi uchun “REALTOR SERVIS FAYZ” MChJda 2024-yil 24-mayda tuzilgan ko‘chmas mulkning oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Sotuvchi Ochilov Olimjon Obidovich va sotib oluvchi Ro‘ziqulov Baxriddin Sayfievichlar o‘rtasida Past Darg‘om tumani Juma shaharchasi, «Bo‘ston» MFY, Dilband ko‘chasi, 5-uy, 1-manzilda joylashgan savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchasining bir qismi, 3-xonasi uchun “REALTOR SERVIS FAYZ” MChJda 2024-yil 24-mayda tuzilgan ko‘chmas mulkning oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

TOPGANGA MUKOFOT!

Fuqaro Axadov Akramjon Miralisherovichning haydovchilik guvohnomasi (AG 1905631, 08.08.2012 yilda berilgan) Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so‘raymiz.

Telefon: +99894-047-02-02.

OCHIQ MA’RUZA O‘TKAZILADI!

SamDTU pediatriya ishi fakultetining nevrologiya kafedrasi va yuqumli kasalliklar kafedralari tomonidan 2024-yil 16-dekabr kuni soat 09:00 da nevrologiya fanidan pediatriya ishi fakultetining 5-kurs talabalari uchun ochiq ma’ruza o‘tkaziladi.

Integrativ maruza. Mavzu: “Markaziy asab sistemasining yallig‘lanish kasalliklari”.

Ma’ruzachilar: t.f.d., dotsent Niyozov Sh.T., t.f.n., dotsent Orziqulov A.O.

Manzil: SamDTU ko‘p tarmoqli klinikasi nevrologiya kafedrasi ma’ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Pediatriya fakultetining 5-kurs talabalari, kafedra assistentlari, bo‘lim vrachlari, klinik ordinatorlar, magistrlar, talabalar ilmiy jamiyatida a’zo talabalari, o‘quv bo‘limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: t.f.d., professor Djurabekova A.T.



PANGAT – tog‘lar bag‘ridagi maskan

Samarqand tuprog‘ining har bir qarichi nafaqat yer usti va yer osti boyliklariga kon, balki bitmas-tuganmas olis tarix, moziy bag‘ridan so‘zlaydi. Viloyatimizning eng olis, shuning bilan birga, ko‘hna tuprog‘i, betakror tabiati, beqiyos tarixi, tillarda doston Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidek baxshilar tug‘ilgan, Jo‘sh otaday aziz ziyoratgohlar bo‘lgan Qo‘shrabot tumani bugungi kunda ham kengliklari, qir-adirlari, soylari, baland va purviqor tog‘lari bilan ilm va qalam ahlini o‘ziga jalb etib, sehrlab kelmoqda. Ayniqsa, nomlari ham, tarixi ham qadimiy qishloqlarda bugungi kun nafasi bilan yashayotgan odamlarining hayoti, o‘y-orzulari diqqatimizni tortdi. Manbalarda keltirilishicha, eng qadimiy qishloq sanalmish Pangatning yoshi uch asrdan oshmoqda. Bu qishloqning tabiati fusunkor, tuprog‘i haliym, suvlari shirin, daraxtlari viqorli va ko‘rkam.

- Qishloq Nurota tog‘ tizmasi janubiy yonbag‘rida joylashgan, - deya suhbatimizni boshlaydi ko‘p yillik tajribaga ega o‘qituvchi, “ Pangat qishlog‘i haqida tarixiy – etnografik risola” muallifi Turobboy Hayitov. - Mahobatli Qushxona, Gavxona va Bojg‘on cho‘qqilari tumanning deyarli barcha joylarida ko‘zga tashlanadi. Uchayotgan uchoqlar singari ko‘kka qad ko‘tarib, bu cho‘qqilar kishiga zavq beradi, tog‘lar simfoniyasi esa Pangat qishlog‘ining ko‘rkidir. Qoratov va Oqtov oralig‘i o‘zaro “muzbel” orqali tutashgan, bu oraliqdan qadimgi karvon yo‘li o‘tgan bo‘lib, tumanimiz hududidagi yo‘l yoqalarida qo‘sh rabotlar qurilgan. Qishlog‘imiz ana shu muzbel va rabotlar yaqinida joylashgan.

Qishloqning nomiga kelsak, turli rivoyatlar va taxminlar bor. Eng avvalo, qishloq chindan ham balandlikda, bahavo maskanda joylashgan bo‘lib, uni baland va yuqori qishloq deb atashgan. Boshqa tomondan, Pangatda 82 nafar avliyo o‘tganligi naql etilishi nazarda tutilib, “Avliyolar makoni” singari taxminlar ham mavjud.

- Qishlog‘imizdagi tog‘ tabiiy iqlim sharoitiga, ajoyib flora va faunaga ega, - deya suhbatga qo‘shiladi yosh ijodkor o‘qituvchi Valijon Qahramonov.- Tog‘ daraxtlar, butalar, yovvoyi bodom, dorivor o‘simliklar bilan qoplangan. Bu yerda yurtimizda uchraydigan o‘simliklarning 1500 dan ziyod turi bor. YUNESKOning “Nurota-Qizilqum rezervati” shu tog‘da joylashgan bo‘lib, bu qo‘riqxonada mavjud bioxilma-xillikni saqlab qolish, ekoturizmni rivojlantirish nazarda tutilgan. Pangatda 666 ta katta-kichik dara va jilg‘alar tog‘ cho‘qqilaridan boshlanib, ikkita katta soyga quyiladi. Bu ikki soy Pangat markazi Qo‘rg‘on qishlog‘idagi masjid yonida birikib, Pangatsoy mavsumiy daryosini hosil qiladi. Qishloq balandlikda joylashgani uchun uning turli nuqtalaridan Jo‘sh, Oqtov, qo‘shni Payariq tumani, Haydarko‘l ham ko‘rinib turadi, shimoldan Nurota tumaniga chegaradosh.

- Ayni paytda mahalla aholisi 2122 nafarni tashkil etadi, - deydi Pangat mahallasi raisi Alisher To‘laganov. – 587 oila mavjud. Aholi asosan chorvachilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanadi. Mahallada yoshlarni ish bilan band etish maqsadida tadbirkorlarimiz tomonidan tilga olsa, arzigulik ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ichki turizmni rivojlantirish yo‘nalishi bo‘yicha ishlarning ko‘lami keng. Qishlog‘imizning so‘lim tabiati va shifobaxsh suvlari, tanga davo havosining sharofati bilan bugungacha 30 ga yaqin dam olish maskanlari ochildi. Aholi yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida 4 kilometrlik tuproq yo‘llarimiz shag‘allashtirildi, yangi ko‘prik va suv inshooti odamlarimizning uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qilmoqda. Pangatning markazi Qo‘rg‘on qishlog‘i hisoblanadi. Aholiga ayni paytda ikkita maktab, 6-MTM, oilaviy shifokorlik punkti xizmat ko‘rsatmoqda.

- Mana shu betakror tabiat menda ham ichki turizm yo‘nalishi bo‘yicha Pangat turizm maskanlarini ochish orzusini uyg‘otdi, - deydi yosh tadbirkor Vahobjon Do‘satov. -Bu yerda har bir fasl o‘ziga xos chiroy ochadi. Ayniqsa, bahor va yoz fasllari dam oluvchilarni ko‘proq bag‘riga chorlamoqda. Tadbirkorlikni 2016-yilda boshladim. 2019-yilda viloyat hokimining qabulida bo‘ldim, hokimlik meni qo‘llab-quvvatladi. Ichki turizmni rivojlantirish rejasi bo‘yicha kredit olishimda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, yaqindan ko‘maklashdi. Hozirgi paytda maskanda 20 ta mavsumiy dam olish joylari, 2 ta lager faoliyat ko‘rsatmoqda. Yana 10 ta mehmon uylari, sanatoriya qurish rejamiz bor, bizda imkoniyat ko‘p. Agar ulardan oqilona foydalanilsa, mahallada yashovchilarning 80 foizi ish bilan ta’minlanishi mumkin. Xususan, qishda chang‘i uchish, yozda dorivor o‘simliklarni yig‘ish, quritish va qadoqlash, ularni eksport qilish, suv chiqmaydigan tog‘ yonbag‘irlariga motor bilan suv chiqarib, mevali daraxtlar ekib, bog‘ yaratish shubhasiz, aholi hayotining yanada to‘kinligini ta’minlaydi.

Darhaqiqat, turizm o‘z navbatida, ekologiyani yaxshilash, turistik makonlarni ko‘paytirish, shuningdek, xalq amaliy san’ati – kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilikni rivojlantirishga ham olib keladi. Buning uchun aynan Pangat qishlog‘ida tabiiy shart-sharoitlar bisyor.

- Qishloqdagi “G‘oyib ota-Qo‘rg‘on” jome masjidi tarixining ildizi chuqur. Uning qayta qurilishi 1860-1864-yillarga to‘g‘ri keladi, - deydi jome masjid imom xatibi Sobir To‘xtashev. – Bu dargoh mahallamiz markazidagi ikki soy qo‘shiladigan tepalik ustida joylashgan bo‘lib, to‘rt tomoni ochiq, bahavo. 400 yillik tarixga ega masjidimiz davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, 2012-yilda tarixiy obida sifatida madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan. Bobolarimiz qo‘li va qalb qo‘ri bilan qurilgan bu masjid o‘tgan zamonlarda madrasa vazifasini o‘tagan.

Maftunkor Pangat tog‘lari, uning onam tug‘ilib o‘sgan Qo‘rg‘on qishlog‘iga ijodkor do‘stlarim bilan qilgan safarim onamning (joylari jannatda bo‘lsin!) sog‘inchlari sochilgan she’rga aylandi:

Bolaligim ertaklarini
Bugun o‘ngda ko‘rdim, onajon.
Baland-baland, ochiq, bahavo
Tepalikda turdim, onajon.
Bunda sahar ilk yig‘ingizni
Eshitgan tik tog‘larga boqdim.
Tuyg‘ularim yelday yugurib,
Xushbo‘y-xushbo‘y bog‘larda oqdi.
Qo‘rg‘on qishloq! Pangat tog‘lari! –
Tog‘a yurting, der edi onam.
Shu osmonni, qir-adirlarni
Unutolmay yashadi har dam.
Der ediki:”Olis – olisda
Bir tog‘lar bor ko‘rkam va go‘zal.
Asrlarki, cho‘qqilariga
Shamol sochib o‘tadi g‘azal.
Bolaligim daftarlariga
Shu g‘azallar bitilgan edi.
Avliyolar o‘tgan makonda
Men ham ko‘ngil shoiri edim ...”

Oygul SUYUNDIQOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoira.

Prezident qaroriga ko‘ra

Ehtiyojmandlar va nogironligi bor shaxslar spektakllarga bepul kiritiladi

Bu haqda “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, aholi, ayniqsa, yoshlarning teatrlarga doimiy tashriflarini nazarda tutuvchi «Teatr — ibratxonadir» dasturi amalga oshiriladi.

Bunda «Mahalla yettiligi» a’zolari bilan birgalikda har oyda mahallalarda «Teatr kuni» tadbirlari o‘tkazish yo‘lga qo‘yiladi. «Temir daftar», «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari»ga kiritilgan fuqarolar va nogironligi bo‘lgan shaxslar davlat teatrlarining spektakllariga bepul kiritiladi.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA BAHODIR YO‘LDOSHEV NOMIDAGI MUKOFOTLAR TA’SIS ETILADI

Qarorga ko‘ra, dramaturglar uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi hamda yosh rejissyorlar uchun Bahodir Yo‘ldoshev nomidagi mukofot ta’sis etiladi. Mukofotlar bo‘yicha tanlovlar har ikki yilda o‘tkazilib, ularning g‘oliblari mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 50 barobari miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Rejissyor – dramaturg – kompozitor – rassom tamoyili asosida ijodiy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan 2025-yildan har yili avgust oyida “Nigoh” ijodiy loyihasi amalga oshiriladi. Milliy akademik musiqa san’atini rivojlantirish va ommalashtirish maqsadida har 2 yilda milliy kompozitorlar tanlovi o‘tkazib boriladi.

Shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri huzurida Teatr rejissyorlari akademiyasi tashkil etiladi. Jahon dramaturgiyasi namunalaridan tarjima qilingan asarlar bo‘yicha har yili “Eng yaxshi tarjima sahna asarlari” tanlovi joriy etiladi.

2025-yildan:

- har 2 yilda tarixiy va zamonaviy mavzular bo‘yicha “Eng yaxshi pesalar” tanlovi tashkil etiladi;
- O‘zbekiston teatr jamoalarining milliy reytingi tuziladi.

Mulohaza uchun mavzu

Bir yigitga qirq hunar oz

Bir kuni ko‘p qavatli uylarda yashaydigan tanishim dardini aytib qoldi.

- Tunov kuni yarim kechasi uyqum qochdi, - deydi u. – Chanqagan ekanman, oshxonaga o‘tdim. Jo‘mrakni burab, bir piyola suv oldim. Suvni yopish uchun jo‘mrakni ortga buradim, ammo u hech qotmadi, aylanib ketaverdi. Suv to‘xtamadi. Vannaxonadagi markaziy jo‘mrakdan to‘xtataman deb borsam, u ham ishdan chiqqan ekan. Tunda santexnik chaqirishning ham ilojini topolmadim. Suv ertalabgacha oqib turdi. Xavotirlanib, o‘sha tunni bedor o‘tkazdim.

Bunday holatlar ko‘pgina xonadonlarda uchrab turishi bor gap.

- Bundan bir necha yillar ilgari, suvga hisoblagich o‘rnatilmagan paytlarda vannaxonadagi jo‘mrakdan suv tomchilab turardi, - deydi qo‘shnilarimning biri. – Suv oqishi kundan-kunga ko‘payib borardi. To‘g‘risini aytsam, bir necha oylab shu holatda turdi. Tuzatish qo‘limdan kelmaydi. Santexnik chaqirishga vaqt bo‘lmasdi, vaqt bo‘lganda qunt bo‘lmasdi, har ikkisi ham bo‘lganda, pul bo‘lmasdi. Xullas bahona ko‘p edi. Bir kuni yaqin do‘stim mehmonga kelib qoldi. U oliy ma’lumotli pedagog, bir maktabda rahbar. Vannadagi isrof bo‘layotgan suvni ko‘rib, chidab turolmadi shekilli, birga chiqib, xo‘jalik mollari do‘konidan yangi jo‘mrak sotib olib kelishimizni aytdi. 10 ming so‘m turar ekan. O‘rnatishga esa 5 daqiqa ketdi. Do‘stimning bu ishidan minnatdor bo‘ldim. Ham uyimdagi bir muammoni hal etdi, ham menga buzilgan jo‘mrakni almashtirishni o‘rgatdi.

Ko‘pqavatli uyda yashaydiganlar suv jo‘mraklarini almashtirish, dazmol, elektr pechi yoki boshqa bir maishiy texnikaning uzilgan simini ulab qo‘yish kabi oddiy ishlarni o‘rganib qo‘ysa, foydadan xoli bo‘lmaydi. Hovlida yashovchilar esa yanayam ko‘proq hunarli bo‘lishi talab etiladi.


- Yoshligimda o‘rgangan hunarlarim orqasidan ro‘zg‘or tebrataman, - dedi do‘stim Akmal Xolboyev. – Maqtanish emas, qishloqda yashasam ham uyimda shahar sharoitini yaratib qo‘yganman. Imorat qurilishida duradgorlikdan tashqari barcha ishda o‘zim bosh usta bo‘lganman. Elektromontyor, santexnika ishlarini ham o‘zim bajarganman.

Akmalning hovlisiga borsangiz, uning qo‘li gul hunarmandligi har qadamda sezilib turadi. Ayniqsa, tomorqasini tomosha qilib, zavqlanasiz. Jo‘yaklar xuddi chizg‘ich yordamida olingandek.

- Tomorqada mehnat qilish uchun ham qobiliyat kerak, - deydi u kulib. - Musavvirlik qobiliyati. Aytadilar-ku, har qanday kishida bir foiz iste’dod bo‘ladi, qolgan 99 foiziga mehnat, harakat orqali erishiladi. Otamdan, akalarimdan o‘rganganlarimni bugungi kunda farzandlarimga, ukalarimga o‘rgatib kelyapman.

To‘g‘risini aytsam, o‘zim ham ro‘zg‘orda uchrab turadigan bu kabi yumushlarni bajarishni o‘rganib qo‘yishim va farzandlarimga ham o‘rgatishim kerakligini angladim.

To‘lqin SIDDIQOV.



Yangi kitob

Yurtimizning har bir go‘shasi, xususan, insoniyat tamaddunida nom qozongan ulug‘ insonlar yetishib chiqqan qishloqlar tarixi alohida o‘ringa ega.

Qishlog‘ingiz tarixini bilasizmi?



Urgut tumanidagi G‘o‘s qishlog‘i ham ana shunday e’tirof etilgan qishloqlardan biri. Bu yerda taniqli olimlar, ijodkorlar va o‘zining halol mehnati, tadbirkorligi bilan butun mamlakatga tanilgan, qishloq nomini sharaflagan insonlar ko‘p.

Odatda bizga yaqin o‘tmishni keksalardan eshitib ham bilsa bo‘lar, ammo yillar o‘tgani sari og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan qimmatli ma’lumotlar unutilishi mumkin. G‘o‘s qishlog‘ining o‘tmishi, bu yerda yashab o‘tgan ulug‘ insonlarning nomlarini tarixga muhrlash hamda bugungi kunda yurt obodligi yo‘lida mehnat qilayotgan insonlarning xizmatlarini e’tirof etish maqsadida “G‘o‘s qishlog‘ining obro‘li insonlari” nomli to‘plam chop etildi.

Mazkur to‘plamdan 37 ming aholisi bo‘lgan G‘o‘s qishlog‘ining usta-hunarmandlari, bog‘bonlari, chevarlari va boshqa kasb egalari, shuningdek, “Beshqarsak” ansambli, G‘o‘s qishlog‘i muzeyi va G‘avs-ul A’zam ziyoratgohi to‘g‘risida ham ma’lumotlarga ega bo‘lasiz.

Rustam JO‘RAQULOV,
SamDChTI professori.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

10-DEKABR

Tal’at BOBOMURODOV – 1936-yilda Samarqand shahrida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist.

13-DEKABR

Ra’no JO‘RAQULOVA – 1944-yilda tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist. “Mehnat shuhrati” ordeni sohibasi.

18-DEKABR

Olim MURTAZOYEV – 1952-yilda Jomboy tumanida tug‘ilgan. Iqtisod fanlari doktori, professor.

20-DEKABR

Usmon SANAQULOV – (1940-2020) G‘ijduvon tumanida tug‘ilgan. Filologiya fanlari doktori

21-DEKABR

Rustam MANSUROV – (1913-1996) Samarqand shahrida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq artisti.

Gazetaning navbatdagi soni 2024-yil 11-dekabr, chorshanba kuni chop etiladi.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 429 nusxada chop etildi. Buyurtma 647. Hajmi 3 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: G.MO‘MINOVA.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda